

## “HISTORY OF DEVELOPMENT OF UZBEK FOLK INSTRUMENTS AND ROLE OF COLLECTIVE PERFORMANCE IN MUSICAL CULTURE” (ON THE EXAMPLE OF UZBEKISTAN)

Mirzayeva Maryam Aliyevna

Jizzakh Named After A.Qodiriy State Pedagogical Institute

"Musical culture" Department Teacher

### ANNOTATION

In this article, the development of music culture, It is a continuation of ancient traditions, the role of polyphonic folk ensembles and orchestras in raising the spiritual level of our society, the musical literacy of the youth, the general culture of our people through the further development of collective performance.

**Keywords:** Ensemble, orchestra, reconstruction, composer, musician, musical instruments, gamma, intonation.

### INTRODUCTION

“Musiqiy tarbiya- bu sozanda ijrochini tarbiyalash emas, balki eng avvalo insonni tarbiyalash demakdir.”

Musiqqa uzoq asrlar davomida insonga hamroh bo'lib kelgan. Insonlarning mehnat faoliyatini, turmushi, his tuyg'ulari, hayot kechirmalarini o'z fikirlari va orzu umidlarini aks ettirib kelgan. Insoniyat jamiyatning umumiy rivojlanishi hamda biron bir xalqning tarixiy turmush sharoitiga muvofiq holda, uning musiqasi rivojlangan.

Har bir xalqning boy mazmunli janr va badiiy obrazlar xilma-xilligi, ohang xususiyatlarinig o'ziga xosligi, ritmikasi, o'ziga xos musiqqa cholg'u asboblari yaratilishi bilan farqlanuvchi jozibador musiqqa asarlari beqiyosdir.

O'zbek xalqining cholg'u asboblari bag'oyat rang-barangdir: ular mavjud cholg'u asboblarining deyarli barcha tiplarini o'z ichiga oladi. Tarixda shunday bo'lganki, an'anaviy o'zbek musiqasida- vokal musiqada ham bir ovozli ya'ni unison ijrochilik yaratilgan. Ushbu an'ana hozirgacha saqlanib qolgan va davom etib kelmoqda. Hozir O'zbekistonda milliy cholg'u asboblarining ikki turi mavjud.

Bular:

- 1) Og'zaki an'anaviy musiqada ishlatiladigan sozlar
- 2) Akademik ijroda takkomillashtirilgan milliy cholg'u sozlarimiz

Sharq madaniyati va san'ati rivojlanishi bilan bir qatorda bevosita o'zbek xalq cholg'ulari ham shakillanib bordi. O'zbek xalq cholg'ularining turli shakillarda rivojlanishidan qadimiy o'rta osiyo tarixidagi o'zgarishlar ham sabab bo'ldi. Musiqaning jamiyatda tutgan o'rni haqida Abu Nasr Muxammad Forobiyning mashhur asari “Musiqqa haqida katta kitob” asarida yozilgan. Forobiy cholg'ushunoslik faniga asos solib cholg'ularni o'rganib chiqqan va barcha cholg'ularga ta'rif berib nay quvurida havoning damli harakati orqali tovush hosil qilinadi, chang esa ochiq torlarning tebranishi orqali ohang hosil qiluvchi cholg'ular turiga kirishini aytib o'tdi. Yana bir mutaffakirimiz Safiuddin Urmaviy musiqqa ilmi tizimini rivojlantirdi. U kishi usta bo'lib juda

ko'p cholg'ular yasagan, o'zi esa ud cholg'usida ijro etgan . U ud cholg'usini xonandaga jo'r bo'lishda eng yaxshi soz deb ta'rif bergan. Hozirgi kunda ud cholg'usi Armaniston, Ozarbayjon O'zbekistonda saqlanib ishlatilib kelinmoqda. O'sha davrda yashagan buyuk olim Ibn Sino Forobiya juda yaqin bo'lgan va o'zining davolash kitobida tanbur, dutor, rubob, chang va arfa sozlari haqida yozgan. Bu sozlar insonning ko'ngliga huzurbaxsh etuvchi nolalar orqali, g'am anduxni unutishga yordam beradi deb ta'rif bergan. O'sha davrning mutaffakirlari Alisher Navoi, Abdurahmon Jomiy musiqaga katta hissa qo'shib, o'z asarlarida namoyon etishgan. Keyinchalik Bobur ham musiqacha cholg'ulari haqida o'zining "Boburnoma" asarida yozib ketgan.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib O'rta Osiyo Rossiya tomonidan istilo qilinadi Turkistonning Rossiyaga qo'shib olinishi bilan Yevropa madaniyati kirib keladi, tez rivojlanish ko'zga yaqqol ko'rinib turardi. Shaharlarda madaniy hordiq chiqarish maqsadida, orkestr turlaridan biri bo'lgan puflab chalinadigan orkestrlar konsertlari bo'lib turardi. Ular shahar bog'larida, ko'chalarda, aholining dam olish joylarida ijro etishardi. Bu davrga kelib o'zbek xalq cholg'ulari ansambllarining turli xillari shakillandi. Xalq cholg'ularining asosiy tiplari barqarorlik kasb etardi. Qardosh xalqlar musiqacha tadqiqotchisi V.M. Belyayev o'zining "O'zbekistonning cholg'u asboblari" kitobida O'zbek xalqining cholg'ularini rekonstruksiya qilish va takomillashtirish zarurligi muammosini kotarib chiqdi. U hozirgi paytda universal nota yozish vositasi sifatidagi Yevropa nota yozuvi asosida O'zbek musiqacha cholg'ularining standart tuzilishini aniqlashni taklif etdi. O'zbek xalq cholg'ulari xilma-xil bo'lganligi uchun uni takomillashtirish nihoyatta qiyin vazifa edi. Bu nihoyat uzoq davom etgan murakkab jarayon bo'ldi. Shu sababli ham xalq cholg'ularini rekonstruksiya qilish va takomillashtirish shuningdek ko'p ovozli ansambl va orkestrlarini tuzish bir necha yillar davom etti. Cholg'ularning eski namunalari o'rniga zamonaviy ijrochiligiga mos talablariga javob beradigan yangi namunalar paydo boldi. Bu ishlarga boshchilik qilgan A.I. Petrosyans o'zining laboratoriyasida juda ko'p ustalar bilan: usta Usmon Zufarov, Matyusuf Xarratov, Yunus Rajabiy usta Tojixon Davlatov, Najmiddin Nasriddinov, Hayrulla Ubaydullayevva boshqalar bilan birgalikda juda katta ish olib bordilar. Yangi musiqacha ch'olg'ularini avvaliga A. L. Petrosyans tashabbusi bilan Toshkent musiqacha bilim yurtida tashkil etilgan o'quvchilar cholg'u orkestrida sinaldi. Yangi tipdagi orkestr tuzilganidan boshlab ilmiy tajriba ishlari O'zbek Davlat filarmoniyasiga yuklatildi. O'zbek cholg'u asboblarning takomillashtirilishi zamonaviy akademik ijrochilik madaniyatining rivojlanishiga olib keldi. Bugungi kunda milliy cholg'ularimizda O'zbek xalq kuylari O'zbek bastakorlari va kompozitorlari tomonidan yozilgan asrlar qardosh xalqlar musiqasi va jahon kompozitorlari asarlari ijrosi milliy sozlarimiz orqali sozandalar tomonidan ijro etilmoqda. O'zbekiston respublikasini musiqacha sohasida yoshlarimiz jahonga tanilmoqda va o'z ijodlarini namoyon etayotgan yoshlar ko'p. Bugungi kunda musiqiy ta'lim yo'nalishi bo'yicha yurtimizda samarai ishlar olib borilayotgani, madaniy merosimiz bo'lgan milliy musiqacha san'atimizning rivojlanishida yaqqol ko'rinmoqda.

O'zbek xalq choilg'ularida jamoaviy orkestr ijrochiligi musiqaning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Yosh avlodni kamolot sari yetaklashda tarbiyaning ko'plab omillari qatorida musiqacha alohida o'rin tutadi. Ma'lumki respublikamizning barcha musiqacha kollejlari va sa'nat litseylarida, maktablarida, xususan oliy ta'limning musiqacha fakultetlarida turli ansambllar,

orkestrlar dars sifatida o'tiladi. Ansambl ijrochiligi darslarida o'quvchilar birgalikda bo'lib ijro etish, birgalikda hamnafas bo'lib musiqaning sir asrorlarini o'zlashtirib boradilar. Bunda sozanda o'z cholg'usini eshitib qolmasdan, balki boshqa sozlarning tovushini ham eshita olishi hamda umumiy ijroni eshita olish va o'z cholg'usining tovushini jamoa ijrochiligiga mos ravishda boshqara olish ko'nikmalarini o'zlashtirib boradi. Shu bilan birgalikda faqat o'z sozining ijro imkoniyatlarini chuqur o'rganib qolmasdan, qolgan barcha sozlarning o'zigagina xos bo'lgan tovush, tember, koloritik hamda ijro imkoniyatlarini ham o'zlashtirib o'rganib boradilar. Ansamblda ijro etishning yana bir o'ziga xos tomonlaridan biri bu jo'rnavoqlik qilish sirlarini o'zlashtirishdir.

Ko'p ovozli o'zbek xalq cholg'ulari orkestrida xalq cholg'ulari orkestrlari uchun maxsus yozilgan kompozitorlar asarlarini yaxshi o'rganish, notaga qarab ijro etish ko'nikmalarini rivojlantirish bilan birga, dirijorning barcha ko'rsatmalariga amal qilishi lozim. Orkestrda asarlar jamoaviy ijrochilikning har xil tomonlarini ochish va cholg'ularning turli ijrochilik usullarini o'rganishga qaratilgan. Talabalarni o'zlashtirishida, ijrochilik maxoratini oshirishda, sozanda gamma va mashqlar, aplikatura talablarini o'zlashtirishi mashg'ulot boshlanishida ijro etib borishi kerak. Orkestrda sozandaning eshitishi ko'rish darajalari o'z matn yo'nalishini eshitib jamoa ijrochiligida intonatsiya turg'unligi katta ahamiyatga ega.

O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan o'zbek davlat filarmoniyasi qoshidagi Milliy sozlar orkestri dirijor D. Mutalov hozirgi kunda musiqa madaniyatini rivojlantirishda ulkan dasturlari bilan faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Orkestr dasturida o'zbek milliy musiqamiz bilan bir qatorda kompozitorlik asarlari, Sharq va G'arb musiqalaridan namunalarni ijro etib, xalqqa taqdim qilib kelmoqda. Yana shunday orkestrlardan biri "So'g'diyona" o'zbek xalq cholg'ulari kamer orkestridir. Orkestr 1991 yilda tashkil topgan bo'lib uning tarkibida iste'dodli va o'z ishiga sadoqatli sozandalar kiradi. So'g'diyona kamer orkestrining repertuarida turli milliy uslub davrga hos juda ko'p asarlar mavjud bo'lib ular yuqori professional darajadagi jamoadir. Orkestor og'zaki an'anadagi o'zbek musiqasi qayta ishlangan folklor kuylari o'zbek kompozitorlari asarlari, Yevropa va Osiyo xalqlari kuylari qardosh xalqlar musqasidan ham o'z repertuariga kiritib kelmoqda. Bu jamoa o'zbek musiqa madaniyatini butun jahonga tanitishda ko'p mamlakatlarda o'zining san'atini namoyon qilib kelmoqda. Masalan: Germaniya, Fransiya, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya, AQSH, Hindiston va boshqa mamlakatlar professional sozandalari bilan uchrashuvlar o'tkazib kelmoqda. Yevropa va Osiyo sozandalari bilan do'stlik konsertlarini o'tkazgan. Orkestr Germaniya sozandalari bilan hamkorlikda ikki "sozlar navosi", "O'zbekiston Bavariya muloqoti", Buyuk Britaniya "Iron Horse" rok-guruhlari bilan kompakt-disklarini tayyorlash va chiqarish, so'ngisi turli yo'nalishdagi akademik var ok-folk jamoalarining ijodiy hamkorligini natijasi bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda jamoa bo'lib ijro etish, ham tinglovchiga, ham sozandalarga xush yoqadigan musiqani yetkazib berishdir. Ko'p ovozli xalq cholg'ulari orkestrlari cholg'u madaniyati qadimiy an'alarining mantiqiy davomi hisoblanadi. Bu musiqa jamiyatimiz ma'naviy saviyasini yoshlarning musiqa savodi, xalqimizning umumiy madaniyatini yuksaltirishda katta ahamiyat kasb etadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. S.Begmatov N.Qodirov “Ansambl sinfi” Yangi nashr 2008 yil
2. A.Lutfullayev “Changchilar ansambli” A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti 2003 yil
3. F.Abdurahimova “Orkestr sinfi” “Musiqqa nashriyoti” Toshkent 2015.